UO‘K 37.01:316.6

TA’LIM TIZIMIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNING O‘RNI

Hasanbayev O‘tkir Melibayevich,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
rektor maslahatchisi, PhD, dotsent v.b.
U.Xasanbayev@iiau.uz

Ushbu maqolada ta’lim tizimida ijtimoiy-ma’naviy muhitning mazmun-mohiyati, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Ijtimoiy-ma’naviy muhit ta’lim muassasasidagi ijtimoiy munosabatlar, ma’naviy-axloqiy me’yorlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniy an’analar, milliy identiklik, psixologik muhit hamda global axborot makoni ta’sirida shakllanuvchi murakkab ijtimoiy tizim sifatida baholanadi. Maqolada sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitning yoshlarda vatanparvarlik, bag‘rikenglik, fuqarolik mas’uliyati, tanqidiy fikrlash va yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish, raqamli muhit ta’sirini hisobga olgan holda yoshlarni destruktiv g‘oyalardan himoya qilish va ta’lim ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro hurmat hamda hamkorlik muhitini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, ijtimoiy-ma’naviy muhit, ma’naviyat, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, psixologik muhit, milliy identiklik, yoshlar tarbiyasi, ta’lim muassasasi.*

РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

В статье рассматриваются сущность социально-духовной среды в системе образования, факторы её формирования и значение в повышении эффективности образовательного процесса. Социально-духовная среда характеризуется как сложная социальная система, включающая общественные отношения, духовно-нравственные нормы, национальные и общечеловеческие ценности, культурные традиции, национальную идентичность, психологический климат и влияние глобального информационного пространства. Особое внимание уделяется роли благоприятной социально-духовной среды в формировании у обучающихся патриотизма, гражданской ответственности, толерантности, критического мышления и высоких нравственных качеств. Также обоснована необходимость совершенствования духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях и укрепления атмосферы взаимного уважения и сотрудничества между участниками образовательного процесса.

Ключевые слова: *система образования, социально-духовная среда, духовность, нравственное воспитание, национальные ценности, общественные отношения, психологический климат, национальная идентичность, молодёжь, образовательное учреждение.*

THE ROLE OF THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE EDUCATION SYSTEM

This article examines the essence of the socio-spiritual environment in the education system, the factors influencing its formation, and its significance in improving the quality and effectiveness of the educational process. The socio-spiritual environment is defined as a complex social system shaped by social relations, moral and ethical norms, national and universal values, cultural traditions, national identity, the psychological climate, and the impact of the global information environment. The study highlights the importance of a healthy socio-spiritual environment in fostering patriotism, civic responsibility, tolerance, critical thinking, and moral values among students. It also emphasizes the need to enhance spiritual and educational activities, strengthen cooperation and mutual respect within educational institutions, and protect young people from destructive ideological influences in the digital age.

Keywords: *education system, socio-spiritual environment, spirituality, moral education, national values, social relations, psychological climate, national identity, youth development, educational institution.*

Kirish. Ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy-ma’naviy muhit shunchaki muassasaning ichki tartib-qoidalari yoki axloqiy me’yorlar yig‘indisi emas, balki murakkab, ko‘p o‘lchovli ijtimoiy-pedagogik va psixologik fenomen hisoblanadi. Ilmiy nuqtayi nazardan, ushbu muhit ta’lim subyekti va obyekti o‘rtasidagi uzluksiz, dinamik o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanuvchi yaxlit aksiologik (qadriyatlar) makondir. Bu

makonda shaxslararo munosabatlar, intellektual salohiyat, emotsional-irodaviy holatlar hamda jamiyatdagi ustuvor g‘oyalar o‘zaro diffuziyalashib, ta’lim muassasasining o‘ziga xos mikroiqlimini yoki «institutsional madaniyatini» yaratadi.

Ta’lim muassasasidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit yoshlarda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish barobarida, jamiyatda kuzatilishi mumkin bo‘lgan turli ma’naviy inqirozlar, ekzistensial bo‘shliq va ruhiy qashshoqlik kabi xavflarning oldini oluvchi muhim ijtimoiy immunitet vazifasini o‘taydi. Sog‘lom muhit sharoitida o‘quvchi va talabalarda tashqi axloqiy talablarni ichki ehtiyojga aylantirish (interiorizatsiya) jarayoni kechadi, bu esa o‘z navbatida ularni yot g‘oyalar va axloqiy degradatsiyadan himoya qiluvchi mustahkam qalqon vazifasini bajaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta’lim tizimida ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirish masalasi milliy va xorijiy tadqiqotlarda turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. M. Quronovning tadqiqotlarida milliy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish masalalari asoslangan. M.U. Atamuratov va F.A. Primova oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish tamoyillarini tadqiq etgan bo‘lsa, U.B. Usmanov ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish sohasidagi islohotlarni tahlil qilgan.

R. Alixanova raqamli ta’lim muhiti sharoitida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning imkoniyat va xavflarini o‘rganib, raqamlashuvning yoshlar qadriyatlari va axloqiy tarbiyasiga ta’siriga e’tibor qaratgan. Xorijiy manbalarda esa ta’lim orqali zo‘ravon ekstremizm va radikallashuvning oldini olish, xarakter tarbiyasi, psixologik maslahat hamda mo‘tadillik tamoyillarini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.

Mavjud adabiyotlar tahlili ta’limda ijtimoiy-ma’naviy muhit masalasi pedagogik, psixologik va ma’naviy-axloqiy jihatdan keng o‘rganilganini, biroq raqamli muhit, milliy qadriyatlar, psixologik xavfsizlik va yoshlarni destruktiv g‘oyalardan himoya qilish omillarini yagona tizimda tadqiq etish zarurati saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ta’lim tizimida ijtimoiy-ma’naviy muhitning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda uning ta’lim samaradorligiga ta’siri kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va sotsiologik yondashuvlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, tarixiy-mantiqiy tahlil hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ta’lim tizimida ijtimoiy-ma’naviy muhitni tartibga soluvchi milliy qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlari, ilmiy adabiyotlar, xorijiy tadqiqotlar va normativ-huquqiy manbalar tahlil qilindi.

Ta’lim muassasalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitning mazmuni va unga ta’sir etuvchi omillarni baholashda tizimli va funksional yondashuv qo‘llanildi. Bunda ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, milliy an’analar, psixologik muhit va raqamli axborot makonining ta’siri o‘zaro bog‘liqlikda tahlil etildi. Olingan natijalarni umumlashtirish asosida ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari va amaliy tavsiyalari ishlab chiqildi.

Buyuk donishmand mutafakkirlarimiz o‘z davridagi ijtimoiy tuzumning siyosiy-iqtisodiy va ma’naviy asoslari qanday bo‘lishidan qat’i nazar yoshlar tarbiyasi masalasiga birinchi darajali ish deb qaraganlar. Chunonchi, Ismoil al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Firdavsiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy va boshqa allomalar o‘z asarlarida axloq, odob, vatanparvarlik, insonparvarlik, adolat, haqiqat g‘oyalarini bayon etishda xalq pedagogikasidan samarali foydalandilar [1].

XIX–XX asrlarda Turkiston xalqlari orasida ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynagan jadid bobolarimiz yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga katta e’tibor qaratganlar. Jadidlar yoshlar tarbiyasida zamonaviy bilimlarni egallashlik, tanqidiy fikrlash, adolat, hurfikrlilik, insoniylik, qadriyatlarni rivojlantirish, milliy-diniy axloq me’yorlarini zamonaviy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, vatanparvarlik va milliy o‘zlikni saqlash g‘oyalarini ilgari surganlar. Ma’rifatparvar olim Abdulla Avloniyning mashhur “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan fikrlari yuqoridagi fikrga yorqin dalil bo‘ladi.

Ushbu tarixiy an’analarni davom ettirgan holda, davlat rahbarimiz Sh.M.Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining ilk davridan yoshlar tarbiyasiga davlat siyosatining usutuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berdilar. Muhtaram Yurtboshimizning mazkur mavzuga alohida e’tibor qaratib, 2017-yil 30-iyunda bo‘lib o‘tgan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida: “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.”, deb ta’kidlaganlar[2].

Ilmiy nuqtayi nazardan, ta’lim tizimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit – bu qadriyatlar, me’yorlar va shaxslararo munosabatlarning yaxlit aksiologik (qadriy) makoni hamda ta’lim muassasasidagi barcha ishtirokchilar (ma’muriyat, o‘qituvchilar, talabalar, ota-onalar va h.k.) o‘rtasidagi munosabatlar, qadriyatlar, me’yorlar va ma’naviy-psixologik qarashlar yig‘indisidir. Ushbu muhitning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati quyidagi asosiy jihatlar bilan izohlanadi:

1. Interiorizatsiya jarayonining katalizatori sifatida. Bilim va axloqiy qoidalar o‘z-o‘zidan insonning ichki e’tiqodiga aylanib qolmaydi. Sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit tashqi ijtimoiy talablar va umuminsoniy qadriyatlarni talabaning ichki ehtiyojiga aylantirish (interiorizatsiya) jarayonini ta’minlaydi. Mutanosib va adolatli muhit mavjud bo‘lgan joydagina o‘quvchi berilayotgan bilimni quruq axborot sifatida emas, balki shaxsiy kamolot va hayotiy muvaffaqiyat vositasi sifatida qabul qiladi.

2. Ekzistensial bo‘shliq va ma’naviy qashshoqlikning oldini olish ushbu muhitning eng strategik vazifalaridan biri – shaxsni turli xil ijtimoiy va ruhiy inqirozlardan himoya qilishdir. Agar ta’lim maskanida yuksak ideallar, o‘zaro hurmat va empatiyaga asoslangan sog‘lom iqlim yaratilmasa, yoshlar ongida qadriyatlar deformatsiyasi yuz beradi. Bunday vaziyatda shaxsda ruhiy va ma’naviy qashshoqlik holati kelib chiqish xavfi keskin ortadi. Ma’naviy qashshoqlik – bu bilimsizlikning o‘zi emas, balki insonning oliy maqsadlar, ijtimoiy mas’uliyat va yaratuvchanlik g‘oyalaridan mahrum bo‘lib, tor manfaatlar doirasida o‘ralashib qolishidir. Sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit esa aynan mana shunday bo‘shliqni to‘ldiruvchi, yoshlarni ma’naviy tanazzuldan asrovchi mustahkam ijtimoiy-psixologik immunitet vazifasini o‘taydi.

3. Kognitiv va psixologik xavfsizlikni ta’minlash. Psixologiya va pedagogika fanlari tasdiqlaydiki, insonning kognitiv (bilish) qobiliyatlari faqatgina psixologik xavfsiz va emotsional barqaror muhitda maksimal darajada ochiladi. O‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi munosabatlar avtoritar buyruqbozlikka emas, balki «subyekt-subyekt» (tenghuquqli hamkorlik) asosiga qurilsa, bu muhitda erkin tafakkur, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik rivojlanadi. Aksincha, loqaydlik, adolatsizlik yoki sun’iylik hukm surgan nosog‘lom muhitda talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari pasayadi, deviant (og‘ishlashgan) xulq-atvor va konfliktogen vaziyatlar ko‘payadi.

4. Ijtimoiylashuv va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish. Ta’lim muassasasi – bu katta jamiyatning kichik modelidir. Talabalar auditoriyadagi bahs-munozaralar, jamoaviy ishlar va ustozlarning shaxsiy namunasi orqali jamiyatda qanday yashash, muammolarni qanday hal qilish va boshqalar bilan qanday muloqot qilishni o‘rganadilar. Sog‘lom muhit yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini, qonunga hurmat va daxldorlik hissini tarbiyalaydigan o‘ziga xos amaliy laboratoriyadir.

Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya talaba-o‘quvchi yoshlarni jamiyatda samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi, xulq-atvor va madaniyatini, ongli intizomni va nizolarni konstruktiv hal qilish qobiliyatini shakllantiradi. Hayot mazmunini anglash insonda burch hissini va o‘zini takomillashtirishga intilishni shakllantiradi.

Moddiy qadriyatlar ustun bo‘lib borayotgan sharoitda ma’naviy-axloqiy tarbiya atrof-muhitga nisbatan e’tiborsizlik, ma’naviy tanazzul kabi salbiy holatlarga qarshi turishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman, ta’lim va tarbiya ajralmas tushunchalar bo‘lib, ularning uyg‘unligi insonning mustaqil va baxtli hayoti uchun zarur bo‘lgan sifatlarni shakllantiradi. Shuning uchun ma’naviy-axloqiy tarbiya shaxs va jamiyat rivojining muhim sharti hisoblanadi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Globallashuv sharoitida internet orqali turli madaniyatlar ta’siri natijasida yoshlarda milliy qadriyatlarga nisbatan qiziqishi pasayishi mumkin. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, zamonaviy ta’lim makonining jadal raqamli transformatsiyasi sharoitida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy xavf-xatarlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Axborotni qabul qilishning parchalanganligi va «klipli» xarakteri. Raqamli texnologiyalarga haddan tashqari berilish o‘quvchilarda parchalanganlik, yuzakilik va axborot oqimlarining tez almashinuvi bilan tavsiflanuvchi «klipli» fikrlashning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bu ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yaxlit qabul qilish va chuqur anglashni qiyinlashtiradi.

2. An’anaviy milliy-diniy qadriyatlardan uzoqlashuv. Turli xil, jumladan, shubhali yoki destruktiv xarakterdagi axborotlardan keng foydalanish imkoniyati an’anaviy ma’naviy-axloqiy mezonlarning zaiflashishiga, qadriyatlarning almashtirilishiga va soxta ideallarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

3. Shaxslararo muloqot va empatiyaning susayishi. Virtual voqelikka haddan tashqari sho‘ng‘ish, raqamli texnologiyalar vositasidagi muloqotning ustuvorligi o‘quvchilarda empatiya (hamdardlik), his-tuyg‘ularni tushunish va haqiqiy shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish ko‘nikmalari rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

4. Axborot yuklamasi va ruhiy salomatlik uchun xavflar. Raqamli muhitda uzoq vaqt bo‘lish, axborotni haddan tashqari ko‘p iste’mol qilish axborot yuklamasiga, bezovtalik va stress darajasining oshishiga, o‘quvchilar ruhiy salomatligining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

5. Manipulyativ ta’sirlar va xavfsizlikka tahdidlar. Raqamli muhit destruktiv kontent, manipulyativ ta’sirlar va kiberxavfsizlik tahdidlari bilan to‘qnashish xavfini oshiradi. Bu o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan xavflarni minimallashtirish raqamli gigiyena, raqamli texnologiyalardan xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlar va ma’naviy-axloqiy tarbiya dasturlarini maqsadli amalga oshirishni taqozo etadi [3]. Bu muammolarni hal etish davlat, ta’lim muassasalari, oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligini talab qiladi.

Yoshlarni zo‘ravonlik, radikallashuv, ekstremizm mafkurasiga nisbatan immunitet shakllantirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga, boshlang‘ich maktabdan tortib universitetgacha joriy etilishi lozim. Mazkur tarbiyaviy jarayon aniq huquqiy hujjatlar bilan, shu jumladan, xususiy ta’limi tizimida tartibga solinishi kerak.

Muhokama. Tadqiqot natijalari ta’lim tizimida sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirish ta’lim sifati bilan bir qatorda yoshlarning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Bunda o‘zaro hurmat va ishonch, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, adolat, bag‘rikenglik hamda psixologik xavfsizlik muhim mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayni paytda raqamli axborot muhitining kengayishi yoshlarda axborotni yuzaki qabul qilish, qadriyatlar transformatsiyasi, shaxslararo muloqotning susayishi, axborot yuklamasi va turli manipulyativ ta’sirlarga duch kelish xavfini kuchaytirmoqda. Shu sababli ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, raqamli madaniyat va psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Shuningdek, sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashda ta’lim muassasasi, oila, mahalla va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ta’lim tizimida yoshlar o‘rtasida radikallashuv va ekstremizm g‘oyalarining ildiz otishi, jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan hamohang bo‘lib, umumiy tarzda quyidagi omillarni qayd etish mumkin:

- ijtimoiy va iqtisodiy muammolar natijasida jamiyatda yuzaga kelayotgan beqarorliklar;
- oila instituti va oilaviy tarbiyadagi mavjud muammolar;
- global ommaviy axborot vositalari ta’siri hamda badiiy adabiyotning kommersiyalashuvi natijasida diniy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning sun’iy “almashtirilishi”;
- ta’lim mazmunidagi «Quruq akademizm» va hayotiy ko‘nikmalar o‘rtasidagi uzilishlar, tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi kamchiliklar;
- psixologik xizmatni tashkil etishdagi kamchiliklar o‘zini jamiyatda, ta’lim muassasasida «begona» his qilayotgan, yoki identifikatsiya inqiroziga yo‘liqqan, “Men kimman? Jamiyatdagi o‘rnim nima?” degan savollarga ta’lim tizimi orqali javob topa olmagan talabalarning mavjudligi hamda ular bilan individual ishlaydigan tizim yetarli shakllanmaganligi;
- ayrim ta’lim muassasalaridagi kuzatilayotgan ijtimoiy adolatsizliklar, tanish-bilishchilik, mahallachilik va favoritizm kabi illatlarning salbiy ta’siri;
- ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ishsizlik, kambag‘allik va imkoniyatlar cheklanganligi, ijtimoiy adolatsizlik hissi, yoshlarda kelajakka ishonchning pasayishi;
- ta’lim tizimidagi ma’naviy-axloqiy tarbiya yo‘nalishidagi kamchiliklar, rasmiyatchilik va “shablon” asosida ishlash orqali talabalarning ma’naviy-ma’rifiy ishlardan o‘zlarini chetga tortishi, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati yetarlicha tahlil etilmasligi va h.k.

Ta’lim muassasalarida radikallashuv va ekstremizm profilaktikasida mazkur g‘oyalarga berilgan shaxsning xususiyatlarini aniq belgilab olish muhim hisoblanadi. Radikallashuvga moyil yoshlarning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni e’tirof qilish mumkin:

- jamiyatdagi mavjud muammolarini yechimini izlashda bir tomonlama va islom ta’limotini radikal talqin etishga asoslangan yondashuvni namoyon etish, o‘z qarashlarini o‘zgalarga majburan singdirishga intilish, zo‘ravonlik ishlatishni mumkin deb hisoblash;
- ijtimoiy-siyosiy jarayonga nisbatan “qora-oq” qarash, ijtimoiy munosabatlarda murosa va kompromisslarni mutlaq inkor etish, “biz” va “ular”larni keskin qarama-qarshi qo‘yish;
- o‘zini din bilan bog‘liq masalalarda boshqalardan ustun qo‘yish, faqat o‘zlarining guruhi yoki g‘oyasi “to‘g‘ri yo‘lda”, qolgan barchaning adashganligiga qat’iy ishonch;
- din bilan bog‘liq axborotni selektiv (tanlab) qabul qilish, o‘z qarashlarini tasdiqlovchi ma’lumotlarni qidirish va ularga zid bo‘lgan har qanday mantiqiy dalilni inkor etish, ilmiy xulosalarga va dunyoviy fanlarga nisbatan shubha yoki nafrat bilan qarash;

- islomshunos va dinshunos dunyoviy olimlar yoki ustozlarni emas, balki ijtimoiy tarmoqlardagi “virtual shayx”larni haqiqat manbayi sifatida e’tirof etish;

- profil rasmlar (avatarlar), kiyim-bosh yoki ijtimoiy tarmoqlardagi postlarida muayyan diniy ramz sifatida e’tirof etilayotgan belgilar, bayroqlar yoki ishoralarni ko‘p qo‘llashga o‘tish;

- madaniyat, san’at, milliy urf-odatlar, milliy bayramlar bilan bog‘liq qadriyatlarga e’tiborsizlik va mumkin qadar ulardan o‘zini olib qochish;

- jamiyatdagi mavjud barcha ijtimoiy-siyosiy yoki iqtisodiy asosdagi muammolarning ildizini islomiy tartib mavjud emasligi bilan bog‘liq deb bilish va h.k.

Yuqorida ko‘rsatilgan ta’lim tizimidagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi xorijiy tajribaning ilg‘or amaliyotlarni milliy manfaatlarga moslashtirgan, ayni vaqtda salbiy natijalarga olib kelayotgan holatlarni esa takrorlamaslik asosida o‘zlashtirish ushbu yo‘nalishdagi faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirish nafaqat barkamol shaxsni shakllantirish, balki yoshlarni din niqobi ostidagi radikallashuv, ekstremizm va terrorizm, giyohvandlik hamda ommaviy madaniyatning salbiy ta’sirlaridan himoya qilishning muhim omili hisoblanadi. Bu esa jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik va taraqqiyotning mustahkam poydevorini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/729.
2. To‘rayeva S.S., Shoyimqulova Z.S. Ta’lim tizimida yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish usullari. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye 2016, 4. – B. 4-9.
3. Р.Алиханова. Возможности и риски духовно-нравственного воспитания обучающихся общеобразовательных учреждений в условиях цифровой образовательной среды. Журнал “Проблемы современного педагогического образования”. 2024. – S. 27-29.
4. “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati” . G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T:. 2010.-B 292.
5. Kuronov M. Milliy tarbiya. – T.: «Ma’naviyat», 2007. -231-b.
6. Usmanov U.B. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga doir islohotlar mazmuni tahlili. Obrazovaniye i innovatsionnie issledovaniya ISSN 2181-1709 (P); 2181-1717 (E) (2023 god № 12). – B.303-306.
7. Atamuratov M.U., Primova F.A. Oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish tamoyillari. -T.: «Fan va texnologiya», 2018, 144 bet.
8. Support model to strengthen schools’ work to prevent violent extremism and school attacks. https://cve.se/download/18.9d7f57e18df2b4fe4037fb6/1710349191923/Webbfil_CVE_RA__ENG.pdf. Murojaat sanasi: 15.04.2026 y.
9. Ressources et outils éducatifs de prévention de la radicalisation. https://eduscol.education.gouv.fr/4983/ ressources-et-outils-educatifs-de-prevention-de-la-radicalisation. Murojaat sanasi: 15.04.2026 y.
10. The Six Pillars of Character (Character Counts!). https://ttaconline.org/Resource/JWHaEa5BS76ITN4xL2J-vQ/Resource-the-six-pillars-of-character-character-counts. Murojaat sanasi: 15.04.2026 y.
11. Counseling Methods. https://www.ebsco.com/research-starters/education/counseling-methods. Murojaat sanasi: 15.04.2026 y.
12. Mohammad Redzuan, OthmanMashitah Sulaiman. inculcating the essence of ‘Wasatiyyah’ in muslim society: the state promotion and muslim intelligentsia responses in Malaysia. https://journals.iium.edu.my/shajarah/ index.php/shaj/article/view/318/201. Murojaat sanasi: 15.04.2026 y.
13. What is Rukun-Negara? https://www.quora.com/What-is-Rukun-Negara. Murojaat sanasi: 15.05.2026 y.